

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKSIDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH  
VOSITALARINING KICHIK BIZNESNI QO'LLAB –  
QUVVATLASHDAGI ROLI**

*“Ipak Yo 'li” AITB «Umar» mintaqaviy filiali  
“Xo 'ja Axror Vali” ekspress markaz boshlig'i*

**Abdulloyev Furqat Olimjonovich**

**E-mail:** \_\_\_\_\_

**Annotatsiya:** Ushbu tezis islomiy moliyalashtirish tushunchasining mohiyati, uning asosiy instrumentlari va tamoyillari, shu jumladan, iqtisodiyotda kichik va o'rta biznesning rolini oshirish chora-tadbirlari, O'zbekiston – 2030 strategiyasi, to'g'risidagi Prezident qaror va farmonlarida ko'zda tutilgan maqsadlar hamda bugungi kunda ushbu sohada mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli sa'y – harakatlar va ularning natijalari, shu bilan birga, mamlakatimizda faoliyat yuritib kelayotgan nufuzli banklardan biri hisoblanmish, “Ipak Yo 'li” aksiyadorlik innovatsiya tijortat bankining islomiy moliyalashtirish sohasida amalga oshirayotgan faoliyatları to'g'risida ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan.

**Kalit so'zlar:** Islomiy moliyalashtirish, islomiy bank, murobaha, mudoraba, mushoraka, ijara, ribo, kichik biznes, xusisiy sektor.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror o'sishi va ijtimoiy farovonlikning ta'minlanishida kichik va o'rta biznes muhim o'rni tutadi. So'nggi yillarda ushbu sektorning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilib, davlat tomonidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2025-yil 19-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan “Iqtisodiyotda kichik va o'rta biznesning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-50-sonli Farmonida kichik va o'rta biznesni qo'llab-



quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi.<sup>1</sup>

Mazkur farmonda 2025-yil yakuniga qadar kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga yetkazish, 70 milliard AQSH dollari miqdorida qo‘shilgan qiymat yaratish, 1,5 million doimiy ish o‘rni tashkil etish kabi muhim maqsadlar belgilangan. Shuningdek, kichik biznes eksportini 9 milliard dollardan 12 milliard dollarga oshirish, 100 ta yangi milliy brendni ishlab chiqish va 200 ta startap loyihalarni moliyalashtirish rejalashtirilgan .

Kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda muqobil moliyalashtirish vositalarining, xususan, islomiy moliyalashtirishning ahamiyati ortib bormoqda. Islomiy moliyalashtirish vositalari, shariat tamoyillariga asoslangan holda, foizsiz (ribo) moliyalashtirish, tavakkalchilikni adolatli taqsimlash va real iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Bu esa kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarga kirishni osonlashtiradi va ularning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Islomiy moliyalashtirish tushunchasini mohiyati to‘g‘risida to‘xtaladigan bo‘lsak:

Islom banki, islomiy moliya yoki Shariatga muvofiq moliya – bu shariat (Islom qonunlari) va uni islom iqtisodini rivojlantirish orqali amalda qo‘llashga mos keladigan bank yoki moliyalashtirish faoliyati. Islomiy bank yoki molianing ba’zi usullari orasida Mudoraba (foydani taqsimlash va zarar ko‘rish), Vadiya (xavfni saqlash), Mushoraka (qo‘shma korxona), Murobaha (narx-plyus) va Ijara (lizing) kiradi.<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasida ham yurtboshimiz Sh. Mirziyoyevning 2023 – yil 11 – sentabrdagi PF – 158 – son farmonida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga ko‘ra, bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantrirish maqsadida kamida 3ta tijorat banklarida islom moliyasi me’zon va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.03.2025 yildagi PF-50-son “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” <https://lex.uz/uz/docs/-7444738>;

<sup>2</sup> “Islom bank ishi va moliyasi”

[https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom\\_bank\\_ishi\\_va\\_moliyasi#O%CA%BBzbekistonda\\_islom\\_moliyasi;](https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom_bank_ishi_va_moliyasi#O%CA%BBzbekistonda_islom_moliyasi;)

bo'yicha maqsadlar belgilangan.<sup>3</sup> Shu asnoda, bugungi kunda O'zbekistonning 12 ta banki, jumladan, "Agrobank", "O'zsanoatqurilishbank", "Mikrokreditbank", "Ipak yo'li" banki va boshqalar xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi kredit liniyalari orqali murobaha, ya'ni, xarid narxi va ustama miqdorini ma'lum qilgan holda, tovarni uning haqqini bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan nasiyaga sotish orqali mijozni moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatmoqda. "Trastbank" ning Trast Muamalat sho'ba korxonasi islomiy lizing xizmatlarini taqdim etmoqda.<sup>4</sup> Islomiy moliyalashtirish sohasida mamlakatimizda faoliyat yuritib kelayotgan nufuzli banklardan biri "Ipak Yo'li" AITB ham ilg'or sa'y – harakatlarni amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekistonda Islomiy moliyalashtirilish Islom bankining xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha loyihalari ko'rinishida taqdim etilgan bo'lib, u uzoq vaqt davomida "Ipak yo'li" banki bilan ham muvaffaqiyatli hamkorlik qilib kelmoqda. Moliyalashtirish Murobaha prinsiplariga muvofiq kafolatlarni ta'minlash uchun banklarga moliyalashtirish liniyalarini taqdim etish shaklida amalga oshiriladi. Bu musulmon mamlakatlaridagi banklar tomonidan ishlataladigan foizsiz operatsiyalarni amalga oshirish uchun eng keng tarqalgan ish usullaridan biridir.

- **Murobaha** — mijozlarni moliyalashtirish bo'yicha faol operatsiya bo'lib, u keng doiradagi xaridlar uchun mos keladi: uskunalardan biznes binolarigacha. Uning ishslash prinsipi oddiy: mijoz kerakli tovarlarni sotib olish shartlari bo'yicha kelishib oladi va bankka murojaat qiladi, u esa o'z navbatida tovarlarni sotib oladi va mijozga qo'shimcha haq evaziga uni qismlarga bo'lib sotadi.<sup>5</sup>

"Ipak Yo'li" aksiyadorlik innovatsiya tijorat bankida islomiy moliyalashtirish "Murabaha" tamoyillariga muvofiq, tadbirkorlik subyektlariga biznes faoliyatini rivojlantirish maqsadida aylanma mablag'larni to'ldirish, asosiy

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 – yil 11 – sentabrdagi PF -158 – son farmoni. "O'zbekiston – 2030" startegiyasi // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>;

<sup>4</sup> Behzod Hamroyev 2024 – yil 20 – may "Islom moliyasi to'g'risidagi qonun loyihasi" // <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/20/islam-banking/>;

<sup>5</sup> "Ipak Yo'li" AITB "Islomiy banking" // <https://ipakyulibank.uz/legal/kreditlar/help/islomiy-banking>;

vositalar va ishlab chiqarish uskunalarini sotib olish uchun Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasi (ИКРЧС) va ITFC liniyalari bo'yicha 5 yilgacha bo'lgan muddatga taqdim etiladi. 2023 – yilda "Ipak Yo'li" AITB faoliyatida islomiy moliyalashtirish yo'nalishi bo'yicha 15,8 million AQSH dollari miqdorida kreditlar berildi.<sup>6</sup>

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida islomiy moliyalashtirish vositalari kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Islomiy moliyalashtirish tizimi, uning mohiyatiga ko'ra, odil va halol moliyaviy amallarni targ'ib qilishi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Islomiy moliya prinsiplari, odatda, foizsiz tizimlar va shaffoflikni o'z ichiga oladi, bu esa kichik biznes uchun yuksak samaradorlikka olib kelishi mumkin. O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islomiy moliyalashtirish sohasidagi yangiliklar va islohotlar kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, islomiy moliya vositalari keng joriy etilishi va ularga asoslangan moliyaviy mahsulotlarning xilma-xilligi kichik biznes sohasida hali to'liq o'z natijalarini bermagan. Shuningdek, islomiy moliya vositalarining samarali ishlashi uchun amaliy mexanizmlarni yaratish, huquqiy va moliyaviy infratuzilmani yanada mustahkamlash talab etiladi. Bundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, islomiy moliya vositalari to'g'risidagi huquqiy bazani yanada mustahkamlash, kichik biznesga mo'ljallangan soliq va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish, islomiy moliyaviy institutlarning kichik biznesga mo'ljallangan mahsulotlar bilan tanishtirishni davom ettirish, kichik tadbirkorlarga moliyaviy savodxonlikni oshirish hamda O'zbekiston o'zining iqtisodiy sharoitlariga moslashtirilgan islomiy moliya vositalarini joriy etish uchun xalqaro tajribalarni o'rganishi va amaliyotga tatbiq etish orqali islomiy moliya vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish zarur.

---

<sup>6</sup> Продукты корпоративного бизнеса АИКВ "Ипак Йўли" // Годовой отчет (акционерам и инвесторам) АИКБ Ипак Йули за 2023г. By Ipak Yuli – Flipsnack (57-стр)  
<https://www.flipsnack.com/CD5DE6BBDC9/2023/full-view.html>;

### **Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.03.2025 yildagi PF-50-son "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rmini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" <https://lex.uz/uz/docs/-7444738>;
2. "Islom bank ishi va moliyasi"  
[https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom\\_bank\\_ishi\\_va\\_moliyasi#O%CA%BB\\_zbekistonda\\_islom\\_moliyasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom_bank_ishi_va_moliyasi#O%CA%BB_zbekistonda_islom_moliyasi) ;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 – yil 11 – sentabrdagi PF - 158 – son farmoni. "O'zbekiston – 2030" startegiyasi //  
<https://lex.uz/ru/docs/6600413>;
4. Behzod Hamroyev 2024 – yil 20 – may "Islom moliyasi to'g'risidagi qonun loyihasi" // <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/20/islam-banking/>;
5. "Ipak Yo'li" AITB "Islomiy banking" //  
<https://ipakyulibank.uz/legal/kreditlar/help/islomiy-banking>;
6. Продукты корпоративного бизнеса АИКВ "Ипак Йўли" // Годовой отчет (акционерам и инвесторам) АИКБ Ипак Йули за 2023г. By Ipak Yuli – Flipsnack (57-стр)  
<https://www.flipsnack.com/CD5DE6BBDC9/2023/full-view.html>.